



EKOTURIZM RIVOJI UCHUN MAVJUD IMKONIYATLAR VA SOHADAGI MUAMMOLAR



Panjiyev Abdullo Ixtiyor o'g'li

Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohalarining rivoji uchun imkoniyatlari va salohiyati haqida yoritiladi.Turizmning ommalashayotgan turlari va ularni O'zbekistonda rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar tahlil qilinadi.Bugungi kunda rivojlanib borayotgan turizm tarmog'i ekoturizm rivoji haqida hamda ekoturizm salohiyati,mavjud resurslar va hal qilish kerak bo'lган muammolar ko'rib chiqiladi.O'zbekistonda ekoturizmning qaysi turlari uchun imkoniyatlar keng ekanligi va bu sohalar rivoji uchun yana nimalar qilish zarurligi haqida tavsiyalar beriladi.Sohalardagi muammolar va ularning yechimi bo'lishi mumkin bo'lган takliflar va tavsiyalar yoritib o'tiladi.Hamda agar O'zbekiston bu kabi sohalarni rivojlanirsa turizm reytingida qanday o'ringa chiqadi va bu davlatga qancha daromad olib kelishi haqida yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, turizm, muammolar, rivojlanish, ekologiya, iqtisodiyot, sayohlik, barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются существующие возможности и основные проблемы развития экотуризма. В настоящее время экотуризм является одним из ключевых направлений туристической сферы, и его развитие имеет большое значение с экономической, экологической и социальной точек зрения. В ходе исследования рассмотренна привлекательность экотуризма, выявлены препятствия на пути его развития и предложены рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: экотуризм, туризм, проблемы, развитие, экология, экономика, путешествия, устойчивость

Annotation: This article analyzes the available opportunities and main problems for development of ecotourism.Nowadays, ecotourism is one of the key directions of the tourism sector, and its development is of great importance from economic, ecological and social perspectives.During the research, the attractiveness of ecotourism, the obstacles encountered in its development, and recommendations for solving these problems are provided.

Keywords: cotourism, tourism, challenges, development, ecology, economy, travel, sustainability.

Kirish: Turizm O'zbekistonda oxirgi yillarda katta e'tbor qaratilayotgan va rivojlanayotgan soha hisoblanadi. O'zbekistonda turizmning ko'pgina turlari uchun

yeterlicha resurslar va imkoniyatlar bor. Tarixiy turizm uchun obidalar, maqbaralar va madrasalar yeterlicha. Ziyorat turizmiga kelsak Imom-Buxoriy, Termiziy, Moturudiy kabi allomalar yuti bo'lib ziyoratgohlarimiz soni ham kam emas. Gastronomik turizm rivoji uchun ham yeterlicha imkoniyat va resurslar bor. Zero o'zbek milliy taomi bo'lgan osh YUNESKO ning jahon nomoddiy meroslar ro'yxatiga kirgan. Ilmiy turizm jihatdan ham yeterlicha salohiyat va imkoniyatga ega. Nafaqat tarixda buyuk allomalar yashab o'tgan balki hozir ham O'zbekiston aholisining ayniqsa yoshlarning ilmiy salohiyati olqishlashga azriydi. O'zbekiston chet elda tahsil olayotgan talabar soni bo'yicha yetakchi 3-o'rinda turadi Xitoy va Hindistondan keyin. Albatta bu davlatlar aholisi bilan O'zbekiston aholisi taqqoslansa farq ancha katta lekin shunga qaramay O'zbekistonlik ysohlarning Oxford,Harvard Kembridge kabi jahondagi nufuzli oliygohlarda soni oshib bormoqda.Davlatimizda ta'limga qaratilayotgan e'tibor va islohotlar natijasida yosh avlodning bilim darajasi va ko'nikmasi oshib bormoqda.

Chet elda tahsil olib qaytgan ko'plab iqtidorli yosh kadrlarimiz o'z sohalarining rivojiga katta hissa qo'shmaqda.O'zbekistonlik o'quvchi yoshlar ko'pgina xalqaro fan olimpiadalarida,tanlovlarda yuqori o'rinnarni egallab qaytmoqda.Bu natijalarni hisobga olsak O'zbekistonning ilmiy salohiyati hali ham ancha yuqori darajada.Biroq oxirgi yillar ichida rivojlanayotgan turizm tarmoqlaridan biri bu ekoturizm hisoblanadi.Turizmning bu turi anchagina serdaromad va tashkil qilish oson bo'lgan sohadir.Garchi O'zbekiston turizm rivojiga katta e'tibor qaratayotgan bo'lsa ham ekoturizm hali rivojlangani yo'q.O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun ham yeterli resurslar mavjud.Masalan tog'-chang'i sporti,cho'l hayvonoti ,tabiat manzarali landshaftlari mavjud.Bu sohadan ko'pgina davlatlar yaxshi daromad oladi.O'zbekistonda ham buni imkoniyati bor ammo hal qilish kerak bo'lgan muammolar va kamchiliklar mavjud.O'zbekistonda ekoturizmning bir qancha turlari jumladan tog' turizmi:alpinism, chang'i sporti,piyoda yurish (trekking) kabi turlarini rivojlantirish mumkin.Asosiy tog' zonalari Tyan-Shan tog'lari(chotqol va ugom tizmalar) Zarafshon tizmasi,Hisor tog'lari,Nurota tog'lari va boshalar.Aytish kerakki O'zbekistoning 20 % hududi tog'lardan iborat.Cho'l hududlari esa juda katta qismni 60 % qismini cho'llar tashkil qiladi.O'zbekistonda Markaziy Osiyoning eng katta cho'llari bo'lgan Qizilqum va Qoraqumning katta qismi joylashgan.Shuningdek O'zbekiston bioturizm va hayvonot dunyosini kuzatuvchilar uchun ham juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan hudud hisoblanadi.Mamlakatimizda Aydarko'l,Tuzkon ko'li,chorvoq suv ombori kabi suv havzalari ham mavjud ekanini hisobga olsak suv turizmi bo'yicha ham imkoniyat va resurslar bor.Bu kabi turizm sohalaridan ko'pgina davlatlar yuqori daromad oladi.Lekin bu davlatlarga nisbatan O'zbekistonda hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ayniqsa turizmning bu tarmog'i ekoturizm sohasida talaygina.O'zbekistonga kelayiotgan turistlarning ko'pchiligi tarixiy va ziyorat turizmi bo'yicha tashrif buyuradi.Bunga sabab ekoturizm sohasidagi hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarda.

Ekoturizm sohasida bir qator: Infrastruktura muammolari,ekologik holatning yomonlashib borishi,marketing va ekoturizm yeterlich targ'ib qilinmasligi huquqiy va boshqaruv sohasi muammolari kabi bir qator maslalar mavjud.Infratuzilma muammolari: Tog'li hududlarda ajoyib manzarali joylar mavjud lekin yo'llar talabga javob bermaydi,cho'l hududlarida ham yo'llar sifati past,yo'l ko'rsatkichlari asosan rus tilda

qolib ketgan,tog'li va cho'l hududlarida joylashtirish vositalari yetarli emas, elektr va usv bilan taminlanmagan,ayrim hududlarda internet sifati o'ta past yoki umuman ishlamaydi.Ekologik muammolar : avvalo ekologik holatni yaxshilab olish kerak afsuski O'zbekistonda cho'llashish davom etmoqda,ekotizimga yetkazilayotgan zarar ko'payib bormoqda. Marketing va targ'ib qilish kamligi: ekoturizm kam targ'ib qilinadi,xorijiy sayyoohlar uchun yetarlicha yo'nalishlar va qo'llanmalar yetarli emas,internetda ekoturizm bo'yicha yeatrli malumot mavjud emas.Albatta bu muammolarni hal qilish uchun anchagina vaqt va mablag' talab qilinadi.Ekoturizm sohasiga ajratilgan mablag' o'zini oqlaydimi yoki qaysi davlat bu sohadan qancha daromad oladi.Shuni tahlil qilib ko'rib chiqsak quyidagi jadvalda.

O'zbekistonda ekoturizm muammolarini hal qilish uchun : Infratuzilmani yaxshilash: Yo'llarni tamirlash ayniqsa tog' va cho'l hududlarida. Eko-mehmonhonalar yoki eko-lagerlarni qurish.Jamoat transportlarini shakllantirish,ayniqsa ekoturizm markazlariga maxsus yo'nalishlar ochish. Chiqindilarni boshqarish va tozalash tizimlarini joriy etish,turizm qoidlarini ishlab chiqish hamda milliy bog'lar va qo'riqxonalarni nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish. Marketing va targ'ibot muammolarini hal qilish uchun ham bir nechta jiahtlarni ko'rib chiqish kerak. Ekoturizm bo'yicha maxsus internet saytlar hamda mobil ilovalar yaratish. Xalqaro sayyoohlik yarmarkalarida O'zbekiston ekoturizmini targ'ib qilish. Mahalliy va xorijiy turistik agentliklar bilan hamkorlik qilish.

1-jadval

Ekoturizm yo'nalishi bo'yicha dunyo sayyoohlarining eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlari ro'yxati

Davlat nomi	Ekoturizm imkonи	Ekoturizm turi	Turistlar soni	YAIM foizi	Daromad
Kosta-Rika	Kosta-Rika biologic xilma-xillikka boy bo'lib yomg'irli o'rmonlar,vulqonlar va milliy bog'lar soni anchagina	Qushlarni kuzatish,piyoda sayohat va tabiatni o'rganish	2,7 mln	8,2 %	3,9 mlrd \$
Kenya	Hayvonot olami ancha keng va milliy bog'larda turli yovvoyi hayvonlarni ko'rish mumkin	Keniyada asosan safari turlari keng rivojlangan,hayvonlarbi kuzatish ham	7,5 mln	5 %	1,6 mlrd \$
Norvegiya	Fyordlari,tog'lari va qutb doirasi bilan mashhur	Piyoda va qayiqda sayr qilish ,shimol yog'dusini tomosha qilish	11,46 mln	6 %	1,3 mlrd \$
Avstraliya	Buyuk to'siq rifi va keng sahrolari bilan tanilgan	Cho'l sayohatlari va yovvoyi tabiatni kuzatish,marjon riflarini o'rganish	9,5 mln	2,8 %	38,3 mlrd \$
Yangi	Tog'lar,ko'llar va	Suv sporti,geothermal	5 mln	7,5 %	13,3 mlrd

Zelandiya	o'rmonlarga boy	hududlarni o'rganish,qushlarni kuzatish			\$
Braziliya	Amazonka o'rmonlari,pantal botqoqliklari,Iguazu sharsharasi mayjud.	O'rmon safari,qushlarni kuzatish,daryo sayohatlari va h.k	5,96 mln	8,2 %	30,8 mlrd \$
Nepal	Himolay tog' tizmasi va Everest cho'qqisi mayjud.	Tog' sayohatlari va yovvoyi tabiatni kuzatish	3,5 mln	6,7 %	3 mlrd \$
Kanada	Milliy bog'lar,ko'llar va daryolarga boy mamlakat	Kemping,qishki sport,qushlarni kuzatish piyoda sayr	27,2 mln	6 %	102,5 mlrd \$
FINLANDIYA	. 75 % I o'rmon bilan qoplangan.	Chang'i sporti,yovvoyi tabiat kuzatuvi,piyoda sayr qilish	12,26 mln	2,6 %	7,5 mlrd \$
SHVETSIYA	Milliy bog'lar,shimol yog'dusi,dengiz tabiatini bilan mashhur	Yovvoyi tabiat safari,shimol yog'dusi kuzatuvi,kanoeda daryo va ko'l sayohati,o'rmon yurishlari	7,53 mln	1,2 %	6,03 mlrd \$

Mana yuqorida ekoturizm bo'yicha dunyoda yetakchilik qilayotgan davlat ro'yxati berilgan.O'zbekiston ham ekoturizm bo'yicha kattagina resurs va salohiyatga ega davlat hisoblanadi.Biroq yuqorida aytilganidek O'zbekistonda nafaqat ekoturism rivoji uchun balki turizm sohasi rivoji uchun ham to'siq bo'layotgan muammolar mavjud.O'zbekistonda ekoturizmning asosiy muammolari:1) Infrastruktura va xizmat ko'rsatish sohasidagi muammolar.

1.1) Tog'li va cho'l hududlarida yo'llar sifati past,transport yetarli darajada taminlanmagani.

1.2) Mehmonhonalar va eko-lagerlar soni yetarli emas tabiiiy bog'lar va qo'riqxonalar yaqinida.

1.3) Oshxona,restoran va do'konlar kabi ehtiyoj mavjud bo'lgan tadbirkorlik obyektlari yetishmovchiligi,asosan tog' va cho'l shuningdek bazi chekka qishloqlarda ham.

1.4) Chekka hududlarda suv va elektr ta'minoti barqaror emas.

Yana bir muammo bu Marketing va xalqaro targ'ibot yetishmovchiligi hisoblanadi.

2.1)Ekoturism kam targ'ib qilinadi,xorijiy sayyoohlар uchun axborot yetarli emas.

2.2)Xalqaro bozorda ekoturizm bo'yicha maxsus platformalar yo'q.

2.3)Raqobatbardosh paketlar yo'qligi- boshqa davlatlarga nisbatan turistlar uchun jozibador paketlar yo'qligi.

Yana bir ekoturizm muammosi bu huquqiy va bosharuv sohasidagi muammolar hisoblanadi.

3.1)Ekoturizm rivoji uchun aniq strategik dasturlar mavjud emas.

3.2)Tabiatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilinmaydi.Atrof-muhitni asrash

yoki noqonuniy ov kabi holatlar mavjud.

Huquqiy va boshqaruv tizmida ham bir qator ishlarni amalga oshirish kerak. Shu jumladan: Ekoturizmga investitsiyalar jalb qilish uchun mahalliy tadbirkorlarga imtiyozlar berish. Mahalliy aholining ekoturizmdagi ishtirokini oshirish, qishloq turizmini rivojlantirish va mahalliy tadbirkorlarga grantlar ajratish. Ekoturizm startegiyasini ishlab chiqish va qonunchilikka tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlarni kiritish.

Xulosa va takliflar: O'zbekistonda ekoturizmning tog' turizmi, cho'l turizmi, suv turizmi, bioturizm, qishloq ekoturizmi kabi ekoturizm turlarini rivojlantirish uchun imkoniyat va resurslar mavjud. Katta imkoniyatlar bor ammo sohada hal qilinishi kerka bo'lgan muammolar va kamchiliklar ham talaygina va ko'p sonli. Muammolarning asosiy qismi infratuzilma yetishmovchiligi, ekologik muhofaza zaifligi va marketing sustligi bilan bog'liq. Agar yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilsa O'zbekiston ekoturizm bo'yicha Markaziy Osiyoning yetakchi davlatlaridan biri bo'lishi mumkin. Lekin bu muammolarni mumkin qadar tez va samarali hal etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi «Mamlakatimizda ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi PQ-21- sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3- dekabrdagi 978-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni 2019-yil
4. "Ekoturizm asoslari" kitobi 33-34-sahifalar Asqar Nig'matov va Nigora Shomurotova
5. "Ekologik turizm" kitobi 1-qism 2018-yil R.Xaitboyev
6. "O'zbekistonning turistik salohiyati" 49- sahifa R.Hayitboyev
7. <https://kun.uz/sayti>
8. <https://www.lex.uz/> sayti
9. <https://uzbektourism.uz/>
10. <https://uz.wikipedia.org>
11. <https://lex.uz/>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

